

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

№7, 2025

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI



ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент

Muxitdinova K.O., Negmatshayeva H.N. AYOLLARDA ERTA HOMILALIK DAVRLARIDA IMMUNOLOGIK KO'RSATKICHLARNING VA PROTEAZ INGIBITORLARINING O'ZGARISHI	Mukhitdinova K.O., Negmatshaeva H.N. MODIFICATIONS IN IMMUNE INDICATORS AND PROTEASE INHIBITORS IN WOMEN IN EARLY PREGNANCY PHASES	126
Пулатова К.С., Миниярова А.Р. ЗНАЧЕНИЕ ЦИТОПРОТЕКТИВНОЙ ТЕРАПИИ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ИШЕМИЧЕСКОЙ ФУНКЦИИ МИОКАРДА У ПАЦИЕНТОВ С ИЗБЫТОЧНОЙ МАССОЙ ТЕЛА	Pulatova K.S., Miniyarova A.R. THE IMPORTANCE OF CYTOPROTECTIVE THERAPY FOR IMPROVING MYOCARDIAL ISCHEMIC FUNCTION IN OVERWEIGHT PATIENTS	130
Саттаров Ш.Я. ОСОБЕННОСТИ ХИРУРГИЧЕСКОЙ ТАКТИКИ ПРИ ИНФИЦИРОВАННОМ ПАНКРЕОНЕКРОЗЕ	Sattarov Sh.Ya. MORBIDITY AND SURGICAL STRATEGY IN INFECTED PANCREATITIS NECROSIS	133
Сирожиддинова Х.Н. ПРОГНОСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МАРКЕРОВ ВОСПАЛЕНИЯ ПРИ ВНУТРИУТРОБНОМ ИНФИЦИРОВАНИИ	Sirojiddinova Kh.N. PROGNOSTIC ASPECTS OF MARKERS OF INFLAMMATION IN INTRAUTERINE INFECTION	137
Sodikova N.B., Karimjonov I.A., Zakirova U.I., Karimova U.N., Israilova N.A. KINESIOTHERAPY IN THE REHABILITATION OF CHILDREN WITH RECURRENT OBSTRUCTIVE BRONCHITIS POST-COVID-19	Sodikova N.B., Karimjonov I.A., Zakirova U.I., Karimova U.N., Israilova N.A. COVID-19 O'TKAZGAN OBSTRUKTIV BRONXITNING QAYTALANUVCHI KECHISHI BO'LGAN BOLALARNI REABILITATSIYA QILISHDA KINEZIOTERAPIYA	140
Солиев А.К., Линцов А.Е., Салиев Д.К., Салиев К.К. НЕКОТОРЫЕ ЦИТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИММУННЫХ КЛЕТОК ПЕРИФЕРИЧЕСКОЙ КРОВИ БОЛЬНЫХ С КОНТРОЛИРУЕМОЙ И НЕКОНТРОЛИРУЕМОЙ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМОЙ	Soliev A.K., Lintsov A.E., Saliev K.K., Saliev D.K. SOME CYTOGENETIC ASPECTS OF PERIPHERAL BLOOD IMMUNE CELLS IN PATIENTS WITH CONTROLLED AND UNCONTROLLED BRONCHIAL ASTHMA	144
Тошмухаммедова М.К., Мухиддинов А.И. ГИПЕРТЕНЗИЯ КАСАЛЛИГИНИНГ COVID-19 ДАН КЕЙИНГИ КАСАЛЛАНГАН БЕМОЛЛАРДА КЕЧИШИ	Toshmukhammedova M.K., Mukhiddinov A.I. COURSE OF HYPERTENSION IN PATIENTS AFTER COVID-19	148
Усманова У.И., Мусашайхов У.Х., Абдуллаева К.Х. ВЛИЯНИЕ ОЖИРЕНИЯ НА РИСК РАЗВИТИЯ АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИИ	Usmanova U.I., Musashaykhov U.Kh., Abdullayeva K.Kh. THE IMPACT OF OBESITY ON THE RISK OF DEVELOPING ARTERIAL HYPERTENSION	151
Фатима А., Хамид М.Р., Пулатова К.С. ОЦЕНКА ПРОГНОСТИЧЕСКОЙ РОЛИ ИНДЕКСА METS-IR В ПРЕДСКАЗАНИИ РАЗВИТИЯ ИНФАРКТА МИОКАРДА ПОСЛЕ КОРОНАРНОГО СТЕНТИРОВАНИЯ У ПАЦИЕНТОВ С ИБС И ОЖИРЕНИЕМ	Fatima A., Hamid M.R., Pulatova K.S. EVALUATION OF THE PROGNOSTIC ROLE OF THE METS-IR INDEX IN PREDICTING THE DEVELOPMENT OF MYOCARDIAL INFARCTION AFTER CORONARY STENTING IN PATIENTS WITH CORONARY ARTERY DISEASE AND OBESITY	155
Ходжанова Ш.И., Аляви А.Л., Кодирова Ш.А. ГЕНЫ-КАНДИДАТЫ РЕЗИСТЕНТНОСТИ К АНТИАГРЕГАНТАМ У БОЛЬНЫХ С ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОСТИ	Khodjanova Sh.I., Alavi A.L., Kodirova Sh.A. CANDIDATE GENES OF RESISTANCE TO ANTIPLATELET AGENTS IN PATIENTS WITH CORONARY ARTERY DISEASE OF UZBEK NATIONALITY	158
Эгамбердиев Р.Х., Алтыбаев У.У., Кариев Г.М., Кадырбеков Р.Т., Султанов А.М. СТРАТЕГИИ КОРРЕКЦИИ ЦИРКУЛЯЦИИ СПИННОМОЗГОВОЙ ЖИДКОСТИ ПРИ СУПРАТЕНТОРИАЛЬНЫХ ОПУХОЛЯХ ЖЕЛУДОЧКОВОЙ СИСТЕМЫ ГОЛОВНОГО МОЗГА	Egamberdiev R.Kh., Altybaev U.U., Kariev G.M., Kadyrbekov R.T., Sultanov A.M. CEREBROSPINAL FLUID CIRCULATION CORRECTION STRATEGIES IN SUPRATENTORIAL BRAIN VENTRICULAR TUMORS	162
ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ		HYGIENE, SANITATION AND EPIDEMIOLOGY
Қаршиева Д.Р. АТМОСФЕРА ҲАВОСИНИ ИФЛОС-ЛАНТИРУВЧИ ОМИЛЛАР ВА УНИНГ ТОЗАЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ	Karshieva D.R. FACTORS POLLUTING ATMOSPHERIC AIR AND METHODS FOR ASSESSING ITS PURITY	167
Raximova D. J. SAMARQAND VILOYATI KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING ANTROPOMETRIK KO'RSATKICHLARNI GIGIYENIK BAHOLASH	Rakhimova D.Zh. HYGIENIC ASSESSMENT OF ANTHROPOMETRIC INDICATORS OF CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE IN SAMARKAND REGION	171
Salomova F.I., Akhmadaliyeva N.O., Sharipova S.A. PAXTA SANOATI BIRLASHMALARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN ISHCHILARNING TIBBIY VA IJTIMOYIY XUSUSIYATLARINI TAVSIFLASH	Salomova F.I., Akhmadaliyeva N.O., Sharipova S.A. DESCRIPTION OF THE MEDICAL AND SOCIAL CHARACTERISTICS OF WORKERS WORKING IN THE COTTON INDUSTRY	177

PAHTA SANOATI BIRLASHMALARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN ISHCHILARNING TIBBIY VA IJTIMOY XUSUSIYATLARINI TAVSIFLASH

Salomova F. I., Axmadaliyeva N. O., Sharipova S. A.

МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РАБОТНИКОВ, РАБОТАЮЩИХ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ХЛОПКОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Саломова Ф.И., Ахмадалиева Н.О., Шарипова С.А.

DESCRIPTION OF THE MEDICAL AND SOCIAL CHARACTERISTICS OF WORKERS WORKING IN THE COTTON INDUSTRY

Salomova F.I., Akhmadaliyeva N.O., Sharipova S.A.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Цель: изучение результатов анкетирования, проведенного с целью изучения психофизиологического состояния и состояния здоровья работников объединений хлопковой промышленности. **Материал и методы:** на выбранных нами предприятиях в хлопковом кластере Кызылтепа (QPK) в общей сложности заняты 461 работник, а в хлопковой промышленности Навбахора (NPS) – 480 работников. Всего были опрошены 120 работников, что составило 13% от общего числа опрошенных. Возраст волонтеров NPS составил $32,2 \pm 0,8$ года, волонтеров QPK – $33 \pm 1,1$ года. Общий стаж работы составляет соответственно 8,4 и 10,2 года, стаж работы в организации – 3,3 и 9,7 года. **Результаты:** у 39% работников отрицательное психофизиологическое состояние проявлялось утомляемостью, у 29,3% – общей слабостью, 22,2% – подавленностью. Основными жалобами являются кашель, одышка, головная боль, зуд глаз и тела. Основной причиной этого является уровень запыленности и шума рабочей среды, превышающий ПДК. **Выводы:** полученные результаты указывают на необходимость среди работников хлопковой промышленности регулярных оздоровительных и профилактических мероприятий.

Ключевые слова: работники хлопкоочистительных комбинатов, психофизиологические факторы, здоровье работников.

Objective: To study the results of a survey conducted to study the psychophysiological state and health of workers in cotton industry associations. **Material and methods:** A total of 461 workers are employed at the enterprises we selected in the Kyzyltepa cotton cluster (QPK), and 480 workers are employed in the Navbahor cotton industry (NPS). A total of 120 workers were surveyed, which made up 13% of the total number of respondents. The age of NPS volunteers was 32.2 ± 0.8 years, while that of QPK volunteers was 33 ± 1.1 years. The total length of service was 8.4 and 10.2 years, respectively, and the length of service in the organization was 3.3 and 9.7 years. **Results:** 39% of workers had a negative psychophysiological state, manifested by fatigue, 29.3% by general weakness, and 22.2% by depression. The main complaints are cough, shortness of breath, headache, itching of the eyes and body. The main reason for this is the level of dust and noise in the working environment, exceeding the MAC. **Conclusions:** The obtained results indicate the need for regular health and preventive measures among workers in the cotton industry.

Key words: workers of cotton ginning plants, psychophysiological factors, health of workers.

Ilimiy-texnik rivojlanish, XX asrning o'ziga xos eng asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi va u insonning barcha faoliyatlarini doirasiga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Ayniqsa, bu ta'sir mehnat jarayonlarida ko'proq o'z ifodasini topmoqda. Zamonaviy korxonalaridagi ilmiy texnik rivojlanishning mehnat sharoitlarini yaxshilashdagi eng zamonaviy usullarni qo'llashga imkon beradi. Ammo, korxonaning ishlab chiqarish qudratini keskin ko'tarilishi, shu muhitdagi zararli omillarning umumiy hajmini ortishiga sababchi bo'ldi, bu o'z o'rnida ishchi organizmiga ularning ta'sir ko'lamini oshiradi. Bu borada bir qator olimlarimiz yuqoridagi o'zgarishlarni ishchilar salomatligi uchun xavf omili bo'lishi mumkinligini ta'kidlab o'tgan [1, 6, 9-11, 13, 15].

Hozirda Respublikamizda ishlab chiqarish korxonalarida, qishloq xo'jaligi sohasi va sanoatida davr talabiga ko'ra yuz berayotgan o'zgarishlar, joriy etilayotgan yangi texnika va texnologiyalar, qurilmalar va asbob-uskunalar paxta ekinlarini ekish, terish va qayta ishlashda keng miqyosda o'z samarasini berib kelmoqda [2-3, 5]. Bu jarayonlarda inson qo'l mehnati ham asosiy o'rin egallaydi. Birgina paxtachilik sohasida chigitli paxtaning turlari, navlarini va uni tayyorlash, ya'ni qabul qilish, tashish, saqlash, chigitli paxta va undan olinadigan mahsulotlar va uni sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda, paxtani dastlabki ishlov berishdan boshlab toza tola olgungacha bo'lgan davr mobaynida ishlatiladigan texnika-texnologiyalarni boshqarishda ishchi xizmatchilarning faoliyati asosiy o'rinni egallaydi. Buning natijasida ishchi-xizmatchilarga ta'sir etuvchi bir qancha nomuvofiq omillar mavjud

bo'lib, bu omillar o'z navbatida ko'rish, eshitish, nafas olish, yurak-qon tomir sistemasiga va turli texnologik jarayonlar ta'siri natijasida vibratsion kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin [7,8, 12, 14, 16]. Hozirgi kunda bu mavzuga yo'naltirilgan bir qator sanitar me'yorlar va qoidalar ishlab chiqilgan va ishlanmoqda. Bularga DavST 12.0.002-14 «Mehnat havfsizligining me'yorlash tizimi», SanMvaQ №0248-08 «Paxta sanoati korxonalarini uchun sanitariya qoidalari va qoidalari», SanMvaQ №0325-16 «Ish joylarida shovqining ruxsat etilgan sanitariya me'yorlari», SanMvaQ №0324-16 «Ishlab chiqarish binolarida mikroiklimning sanitariya gigiyenik me'yorlari», QMQ №2.01.05-98 «Ish joylarida tabiiy va sun'iy yoritilganlik», SanMvaQ №0326-16 «Ish joylarida umumiy va mahalliy vibratsiyaning sanitariya me'yorlari» kabilar kiradi. Paxta sanoati birlashmasi zavodlarida ishchilarni ishlashi uchun SSVning 2012-yil 10-iyuldagi 200-sonli buyrug'iga asosan maxsus tibbiy ko'rikdan xulosa berilgandagina ruxsat etiladi. Ishchi xizmatchilar ijtimoiy portretini yaratish, uning turmush tarzi va sog'lig'ining dastlabki holatini baholash haqidagi ma'lumotlar ijtimoiy so'rovlar orqali amalga oshiriladi.

O'tgan 10-15 yil ichida Yevropada, ayniqsa, Markaziy va Sharqiy Yevropada aholi salomatligini o'rganish bo'yicha so'rov natijalarining mavjudligi va sifati sezilarli darajada oshdi. So'rovlar hozirgi vaqtda salomatlik holatini, ishlab chiqarish muhitida ishchi-xizmatchilarga yaratilayotgan sharoitlarini, ishchilar organizmiga ta'sir etadigan zararli omillarni, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni holatini, sog'liqni saqlash-

ni monitoring qilishning zamonaviy usullaridan birining ro'yxatdan o'tkazilishi bilan birga tan olinadi. Bu jiddiy moliyaviy harajatlarni talab qilmaydi va nisbatan tezdir, bu bizga bir vaqtning o'zida sog'liqni saqlash bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. Sog'liqni saqlash tadqiqotlarida, ayniqsa, davolanish va diagnostika yordamiga muhtoj bo'lmaganlar, shuningdek, aks ettirilmagan yoki hujjatlarda yetarlicha aks etilmaydigan xizmatlar uchun, tibbiy murojat etmaydigan aholi haqida qo'shimcha ma'lumot beradi.

Tadqiqot maqsadi

Paxta sanoati birlashmalarida ishchilarning psixofiziologik holati va salomatlik holatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalarini o'rganish.

Material va usullar

Paxta sanoati birlashmalarida faoliyat yuritayotgan ishchilarning tibbiy va ijtimoiy xususiyatlarini tavsiflash uchun ijtimoiy so'rov o'tkazildi. So'rov to'rtta asosiy qismdan ibora: ishchi xizmatchi haqida umumiy ma'lumot, ishlab chiqarish muhitidagi omillar, ishlab chiqarish muhitida ishchi-xizmatchilarga yaratilayotgan mehnat sharoitlar, sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarining o'zini baholash iborat. Tanlangan ob'ektlarda salomatlik darajasini baholash ikki xil tadqiqotlar asosida o'tkazilishi rejalashtirilgan: Tuman DSENM ishchilarni umumiy kasallanishi haqidagi ma'lumotlari va anonim tarzda so'rov-anketalashtirish ma'lumotlari bo'yicha o'rganildi.

Anketa so'rovnomasi quyidagi bandlarni qamrab oldi: ishchi-xizmatchi haqida ma'lumot (yoshi, jinsi, ish staji), korxonadagi ishchilar shaxsiy himoya vositalaridan bilan taminlanganligi va undan foydalanish holati, ishga kirishdan oldin va keyin qanday kasalliklar bilan og'rigansiz, tanangizda qanday noqulaylik yoki og'riq xissini sezishi, ishdan keyin sizda qaysi holatlar kuzatiladi, tibbiy ko'rik o'tkazilish holatlari.


Natijalar va muhokama

Tanlab olingan ob'ektlarimizda Qiziltepa paxta klasterida (QPK) jami 461 ta, Navbahor paxta sanoati (NPS) da jami 480 ta ishchi bo'lib, anketa-so'rovnomalar jami 120 ta ishchida o'tkazildi va umumiy ishchilar sonini 13% ni tashkil qildi. Shundan NPS ko'ngilarning yoshi $32,2 \pm 0,8$ va QPK bo'yicha $33 \pm 1,1$ ni, har ikkala ob'ekt bo'yicha ko'ngillilar 40

tadan erkak, 20 tadan ayollarni tashkil qildi. Ko'ngillarning 80,4% (NPS bo'yicha) va 82,2% (QPK bo'yicha) oilalilarni, oila qurmaganlar teng nisbatda 19,6% va 17,3% ni tashkil qildi. Umumiy ish staji 8,4 va 10,2 yilni, tashkilotdagi staji 3,3 va 9,7 yilni tashkil qiladi.

Qoida bo'yicha, turli korxonalarda ma'muriyat xodimlari va tibbiy xodimlarning asosiy diqqat-e'tiborlari fizikaviy va kimyoviy omillarga qaratilgan bo'ladi. Bu albatta qonuniy bir hol, chunki bu omillarning ta'siri ko'zga ko'rinarli ta'sir samaralarini keltirib chiqaradi. Ammo, hozirgi zamonaviy sanoat korxonalarida, yangi turdagi o'rta va kichik korxonalarda kundan-kunga ruhiy-fiziologik omillarning tutgan o'rni ham ortib bormoqda, vaholanki, bu korxonalarda texnologik nuqtai-nazardan unchalik takomillashmagan texnologiyalar faoliyat ko'rsatmoqda.


Jumladan, jismoniy ishlarni bajarish yoki tik turgan holatda ishlarni bajarish tayanch organlaridagi mushaklar, bo'g'in boylamlarida statik va dinamik zo'riqishlarni kelib chiqishi kuzatiladi. Bunday holatlarda asosiy og'irlik oyoq mushaklariga tushadi, ikkinchi navbatda chanoq va qorin mushaklari zo'riqadi (og'ir yuklarni tashuvchilar, sotuvchilar, stanoklarda ishlovchilar kabi). Uzoq muddatli statik zo'riqish oqibatida oyoqlardagi vena qon tomirlarining varikoz kengayishi, yassi tovonlik kelib chiqadi. Ayollarda esa, og'ir yuklarni ko'tarish, yuklarni ko'zg'atish jarayonida bachadonning pastga siljishi, bachadan bo'yni va qin devorlarining chiqib ketish holatlari kuzatiladi. Tayanch organlari - oyoqlardagi nospetsifik o'zgarishlarni oldini olish tadbirlari qatoriga ishchilarga ish jarayonida ish holatlarini o'zgartirib turish (o'tirib dam olish soatlariga e'tibor berish), ish kunining oxirida toliqqan oyoq mushaklarini massaj qilish va iliq vannalar belgilash, ish kuni davomida to'g'ri tanlangan oyoq kiyimlarini kiyish - yassi bo'lmagan oyoq kiyimlari, oyoq kiyimining poshnasi 2-3 sm atrofida bo'lishiga e'tibor berilishi kerak. Harakat tayanch organlarining jismoniy zo'riqishi ko'pincha og'ir yuklarni ko'tarish va tashish jarayonida kuzatiladi (yuk tashuvchilar). Bunday ishchilarda vaqt o'tishi bilan qorinning oq chizig'i sohasida churralarning paydo bo'lishi kuzatiladi. Kasallikni oldini olish maqsadida ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va jismoniy tarbiya mashqlarini bajarib turish tavsiya etiladi.



1-rasm. Ishchilarning salomatlik holatini baholash natijalari (tanadagi og'riqlar - %)

Ushbu diagrammada korxonalarda olib borilgan anketa-so'rovnomalari tahlili natijalari keltirilgan. Anketa-so'rovi ikkala korxonaning 60 tadan ishchisi ya'ni 40 ta erkak 20 ta ayol kishidan olindi. QPK umumiy ishchilarning 28,2% (130) ini ayollar tashkil qiladi. 20 ta (100%) ayollarning 40% i (8ta) asosan oyoqlardagi og'riqdan, 26,6% i (5ta) bo'yindagi og'riqdan, 20% (4) yelka va qo'llardagi og'riqdan shikoyat qiladi. Umumiy ishchilar soning 71,8% (330) ini erkaklar tashkil qiladi va 40ta (100%) erkaklarning 50%i (20) beldagi og'riqdan shi-


koyat qiladi. NPSda esa umumiy ishchilarning 24,7% (110) ini ayollar tashkil qiladi. 20ta (100%) ayollarning 32%i (6) oyoqdagi og'riqdan, 28%i (5) qo'l va yelkadagi og'riqdan, 24%i (5) esa bo'yindagi og'riqdan shikoyat qildi. Umumiy ishchilar 75,3% (335) ini erkaklar tashkil qiladi. 40ta (100%) erkaklarning 34,4% (14) bo'yin og'rig'idan, 31,3% (13) beldagi og'riqdan shikoyat qilishdi. 2-diagrammada esa ishdan keyin ishchilarning ruhiy-fiziologik holati qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar keltirilgan.



2- rasm. Ishchilarning ruhiy fiziologik holati (ishdan keyingi - %)

NPS bo'yicha 20ta (100%) ayollarning 29,3% (6) ida umumiy holsizlik, 39% (8) ida charchoq hissi mavjudligi aniqlandi. 40ta (100%) erkaklarning 39,4% (16) ida charchoq hissi, 30,3% (12) ida esa umumiy holsizlik belgilari aniqlandi. QPK 20ta (100%) ayollarning 23,7%

(5) da charchoq hissi, 22,2% (4) ida tushkunlik kayfiyati, 21,5% (4) ida umumiy holsizlik tashkil qildi. 40ta (100%) erkaklarning 36,4% (15)ni umumiy holsizlik, 30,3% (12) ni charchoq hissi tashkil qildi.



3- rasm. Ishchilarning salomatlik holati (ularni bezovta qiluvchi asosiy belgilar bo'yicha - %)

Bu diagrammada korxonadagi umumiy ishchilarning salomatlik ko'rsatgichlari keltirilgan. Bu ham albat-ta anketa-so'rov natijalari asosida olindi. QPK da 60 ta (100%) ishchilarning 50% (30) ida yo'tal bezovta qilishi aniqlandi, NPK esa 60 ta (100%) ishchilarning 34,4% (21) ida bosh og'rig'i, 31,3% (19) ida yo'tal bezovta qilishi aniqlandi.

Xulosa

1. Paxta sanoati birlashmalarida faoliyat yuritayotgan ishchilarning ruhiy-fiziologik va salomatlik holatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan anketa so'rovnoma nati-

jalari ishchilarning umumiy ruhiy-fiziologik salbiy holatlarning 39% i charchoq hissi, 29,3% umumiy holsizlik, 22,2% tushkunlik kayfiyati kabi holatlar qayd etilganini ko'rsatdi. Qiziltepa paxta klasteri ishchilarning 50% (30) ida yo'tal bezovta qilishi aniqlandi, Navbahor paxta sanoati ishchilarning 34,4% (21) ida bosh og'rig'i, 31,3% (19) ida yo'tal bezovta qilishi aniqlandi.

2. Natijalar ishchilarning ruhiy -fiziologik holatini "qoniqarli" deb baholashga va ular o'rtasida doimiy ravishda sog'lomlashtiruvchi-profilaktik tadbirlarni o'tkazishga imkon berdi.

Adabiyotlar

1. Ахмадалиева Н.О., Саломова Ф.И., Садуллаева Х.А., Шарипова С.А., Хабибуллаев С.Ш. Заболеваемость преподавательского состава ВУЗа технического профиля. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.* -2021.-№.1(10).-P.860-871.

2. Ибрагимова Г.З., Шамансурова Х.Ш., Даниярова С.С., Аполлонова Г.М., Тазиева Л.Д. Условия труда на предприятиях, занимающихся переработкой хлопкового волокна // *Медицинский журнал Узбекистана.* – Ташкент.-2008. - №.5. - С. 67-70.

3. Ибрагимова Г.З., Шамансурова Х.Ш., Искандарова Г.Т. Оценка профессионального риска для здоровья работников хлопковой промышленности при воздействии пылевого фактора и определение пылевой нагрузки: Методические рекомендации №012-3/0082 / МЗ РУз, НИИ санитарии, гигиены и профзаболеваний; Авторы: - Т, 2006. - 15 с.

4. Ибрагимова Г.З., Шамансурова Х.Ш., Искандарова Г.Т. Санитарные правила и нормы для предприятий хлопкоочистительной промышленности: СанПин РУз №0248-08 / Санитарные нормы, правила и гигиенические нормативы; Сост.: - Офиц. изд. - Т, 2008. - 35 с.

5. Искандарова Г., Самигова Н., Палимбетов А. Гигиеническая оценка воздуха рабочей зоны цементного завода с учетом её многокомпонентного состава. *Молодой ученый* -2021.-№20(362) -С.63-65.

6. Нуралиев Ф.Н. Гигиеническая оценка условий труда работников прядильного производства // *Актуальные вопросы обеспечения санитарноэпидемиологического благополучия и охраны здоровья населения: Респ. науч.-практ. конф.* – Ташкент, 2022. – С. 77-78.

7. Нуралиев Ф.Н. Влияние производственного шума на организм работающих на прядильных производствах // *Взаимодействие науки и практики. Опыт и перспективы: Всеросс. науч.-практ.конф. с междунар. участием.* – Екатеринбург, 2022. - С. 101-102.

8. Нуралиев Ф.Н. Гигиеническая оценка влияния производственных факторов на организм работающих на прядильных производствах // *Проблемы экологии и экологического образования: Научн.-практ.конф. с междунар. участием.* - Бухара, 2022. - С. 117-118.

9. Саломова Ф.И., Ахмадалиева Н.О., Азизова Ф.Л. Антропогенное загрязнение атмосферного воздуха города Ангрэн. «Profilaktik tibbiyotning dolzarb muammolari».- 2023.-С.65-67.

10. Саломова Ф.И., Ахмадалиева Н.О., Шарипова С.А., Муратбаева А.П. Гигиена труда врачей основных специальностей и особенности условий труда врачей-инфекционистов. *Журнал Молодой Ученый.*-2023.-№. 2.-449с.

11. Самигова Н.Р. Исследование функционального состояния сердечно-сосудистой системы у работающих швейного производства. Физиология человека. *Материалы Всероссийской заочной научной конференции с международным участием, посвященной 85-летию факультета*

естественнонаучного образования Чувашского государственного педагогического университета им. И. Я. Яковлева Чебоксары 2016. С.203-205.

12. Самигова Н.Р. Гигиено-физиологические основы оптимизации условий труда работников швейных производств Узбекистана (диссертация на соискание ученой степени кандидата медицинских наук). 2005.

13. Таджибаева Н.С., Хасанова М.И., Садывакасов А.У., Абдукаххарова М.Ф., Зиёвтидинова Д.Ш. Некоторые аспекты гигиены труда хлопкоробов: научное издание // *Актуал. пробл. гигиены, санитарии и экологии: Матер. науч.-практ. конф., посвящ. 70-летию НИИ санитарии, гигиены и профзаболеваний.* - Т., 2004. - С. 69-70

14. Ghani N, Khalid , Tahir A. J Pak // *Cotton Dust Exposure and Resulting Respiratory Disorders Among Home-Based Garment Workers.* Med Assoc. 2016.- №. 66(7):-P.803-14.

15. Salomova F.I., Yuldasheva F.U., Sherkuzieva G.F. and S.A. Sharipova. "Medical and social assistance to the population." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* . -2024. –P.119-121.

16. Wang X, Zhang H.X., Sun B.X., Dai H.L., Hang J.Q., Eisen E, Su L, Christiani D.C. Am J Respir // *Cross-shift airway responses and long-term decline in FEV1 in cotton textile workers.* Am J Respir Crit Care Med. -2008.-№. 1.-P.316-20.

PAXTA SANOATI BIRLASHMALARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN ISHCHILARNING TIBBIY VA IJTIMOY XUSUSIYATLARINI TAVSIFLASH

Salomova F. I., Axmadaliyeva N. O., Sharipova S.A.

Maqsad: paxta sanoati birlashmalarida ishchilarning psixofiziologik holati va salomatlik holatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalarini o'rganish. **Material va usullar:** Qiziltepa paxta klasterida biz tanlagan korxonalarda jami 461 nafar, Navbahordagi paxta sanoatida 480 nafar ishchi ishlaydi. Jami 120 nafar xodim so'rovda qatnashdi, bu respondentlar umumiy sonining 13 foizini tashkil etdi. NPS ko'ngillilarining yoshi $32,2 \pm 0,8$ yil, QPK ko'ngillilari - $33 \pm 1,1$ yosh. Umumiy ish staji mos ravishda 8,4 va 10,2 yil, tashkilotdagi ish staji esa 3,3 va 9,7 yil. **Natijalar:** 39% ishchilar charchoq, 29,3% umumiy zaiflik va 22,2% depressiya bilan namoyon bo'lgan salbiy psixofiziologik holatga ega edi. Asosiy shikoyatlar - yo'tal, nafas qisilishi, bosh og'rig'i, ko'z va tananing qichishi. Buning asosiy sababi ish muhitidagi chang va shovqin darajasi maksimal ruxsat etilgan kontsentratsiyadan oshib ketadi. **Xulosa:** olingan natijalar paxtachilikda ishchilar o'rtasida sog'lomlashtirish va profilaktika tadbirlarini muntazam olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: paxta tozalash zavodlari ishchilari, ruhiy fiziologik omillar, ishchilar salomatligi

Mualliflar haqida ma'lumot

Salomova Feruza Ibodullayevna, t.f.d., professor, TDTU Atrof-muhit gigiyenasi kafedrasini mudiri. Tel: +998911664114. <https://orcid.org/0000-0003-0070-5209>

Axmadaliyeva Nigora Odilovna, t.f.d., TDTU Atrof-muhit gigiyenasi kafedrasini dotsenti. Tel: + 90-352-91-74, e-mail: gig.dok.74@mail.ru. <https://orcid.org/0000-0003-3314-9146>

Sharipova Sajida Axmetjanovna, TDTU Atrof-muhit gigiyenasi kafedrasini katta o'qituvchisi. Tel: +998903191982, e-mail: s.sharipova1963@gmail.com, <http://orcid.org/0000-0002-9695-468>